



THE ROLE AND IMPORTANCE OF "INSON" CENTERS IN ORGANIZING SOCIAL PROTECTION AT THE MAHALLA LEVEL IN NEW UZBEKISTAN

Bekzod Khakimovich Tolibov

PhD in Sociology

Head of the Department of Social Work

Fergana State University

bekzod-tolibov@mail.ru

Fergana, Uzbekistan

Gulsinoy Bakhtiyorovna Nuralimova

Master's student in Social Work,

Fergana State University

nurolimovnnns@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, social protection, "Inson" social service center, mahalla, social services, individual approach, social justice.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: The article examines the new role of "Inson" social service centers within the system of the National Social Protection Agency under the President, in the context of reforms being implemented in the social policy of New Uzbekistan. The main goal of the centers is to organize comprehensive social services and assistance to vulnerable segments of the population at the mahalla level. The research analyzes the significance of "Inson" centers in providing professional social services based on an individual approach to persons and families in difficult situations, preventing such situations, and ensuring their integration into society.

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOIYANI MAHALLA DARAJASIGACHA TASHKIL ETISH "INSON" MARKAZLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Bekzod Xakimovich Tolibov

Sosiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Ijtimoiy ish kafedrası mudiri

Farg'ona davlat universiteti

bekzod-tolibov@mail.ru

Farg'ona, O'zbekistom

Gulsinoy Baxtiyorovna Nuralimova

Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti

Farg'ona davlat universiteti

nurolimovnns@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ijtimoiy himoya, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, mahalla, ijtimoiy xizmat, individual yondashuv, ijtimoiy adolat.

Annotatsiya: Maqola Yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining yangi rolini o'rganadi. Markazlarning asosiy maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga mahalla darajasida kompleks ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yishdan iborat. Tadqiqot "Inson" markazlarining og'ir ahvolga tushib qolgan shaxs va oilalarga professional yondashuv asosida individual ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularning oldini olish va jamiyatda integratsiyasini ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦЕНТРОВ «ИНСОН» В ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НА УРОВНЕ МАХАЛЛИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Бекзод Хакимович Толибов

Заведующий кафедрой социальной работы

Кандидат философских наук по социологии (PhD)

Ферганский государственный университет

bekzod-tolibov@mail.ru

Фергана, Узбекистан

Гулсиной Бахтияровна Нуралимова

Магистрант по специальности «Социальная работа»,

Ферганский государственный университет

nurolimovnns@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальная защита, центр социальных услуг «Инсон», махалля, социальные услуги, индивидуальный подход, социальная справедливость.

Аннотация: Статья исследует новую роль центров социальных услуг «Инсон» в системе Национального агентства социальной защиты при Президенте в рамках реформ, осуществляемых в социальной политике Нового Узбекистана. Основная цель центров — организация комплексного социального обслуживания и помощи

нуждающимся слоям населения на уровне махалли. Исследование анализирует важность центров «Инсон» в оказании профессиональных социальных услуг на основе индивидуального подхода к лицам и семьям, оказавшимся в трудной жизненной ситуации, их профилактике и обеспечении интеграции в общество.

Kirish. Yangilangan konstitutsiyada belgilangan "ijtimoiy davlat" tamoyilini amalga oshirish va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini mahalla darajasida ta'minlash maqsadida "inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ushbu tizim ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam ko'rsatish emas, balki har bir muhtoj oila va shaxsning individual muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan yagona va professional yondashuv sohani 30 yillik eskirgan tizimdan chiqarib, barcha ijtimoiy xizmatlarni bitta tizimga birlashtirish. Avval 6 ta vazirlikka tarqalgan tuzilmalarni ijtimoiy himoya milliy agentligi qoshida birlashtirish manzilli va individual yordam har bir oilaning aniq holatini o'rganib, ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish. "mahalla yetiligi" vakili har bir xonadonni o'rganib, "ijtimoiy portret" chizish va keys-menejment usulini qo'llash ijtimoiy adolat va shaffoflik yordam haqiqiy muhtojlarga yetib borishini ta'minlash, budjet mablag'larini tejash va ularning oqilona sarflanishiga erishish. Nafaqa oluvchilarni qayta ro'yxatga olish, ularning nafaqat daromadi, balki xarajatlarini ham baholash orqali "ijtimoiy reyestr" tuzish, nogironlarga qulay muhit yaratish nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga to'liq integratsiya qilish, "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechish, bino va transport infratuzilmasini moslashtirish, ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, mahallada samarali xizmat ko'rsatish muammolarning oldini olish va ularni mahalla darajasida hal etish. Har bir tuman (shahar)da "inson" markazlari va ularning mahallalardagi ijtimoiy xodimlari guruhlarini tashkil etish .

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida eng dolzarb yo'nalishlardan biri bu - aholini, ayniqsa uning eng himoyaga muhtoj qatlamlarini qamrovli qo'llab-quvvatlashdir. 2023-yil 1-iyunda qabul qilingan Prezident Farmoni ("PF-82-son") bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy himoya tizimini butunlay yangi, inson manfaatlarini ustuvor qo'yadigan va xizmatlar sifatini tubdan oshiradigan tartibga solishni nazarda tutadi. [1] Ushbu islohotlarning markazida Prezident huzurida tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tarmoqlari bo'lgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari turadi.[2] Ushbu maqolaning maqsadi – "Inson" markazlarining rolini o'rganish va ularning mahalla darajasida ijtimoiy himoyani shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish. "Inson" markazlarining asosiy vazifasi - har bir xonadon va oilaning haqiqiy holatini chuqur o'rganish va ularning aniq ehtiyojlarini aniqlashdan

iborat. [3] Bu jarayon “keys-menejment” usuli yordamida amalga oshirilib, har bir og‘ir ahvolga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo‘lgan oila bilan individual ishlashni nazarda tutadi. [4] Natijada, har bir oila uchun uning iqtisodiy-ijtimoiy holatini aks ettiruvchi “ijtimoiy passport” shakllantiriladi.[5]

Fuqarolarga yagona maskanda turli xil ijtimoiy xizmatlar - nafaqa va moddiy yordam, reabilitatsiya dasturlari, bandlik yo‘naltirishlari, psixologik va huquqiy maslahatlar ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida vazirlik va idoralarning elektron ma‘lumotlar bazalari integratsiyasi ta‘minlanib, xizmat ko‘rsatish jarayonlari soddalashtirilmoqda. [6]

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash, ijtimoiy pasport shakllantirish. Xizmat ko‘rsatish va yo‘naltirish Kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, mas‘ul tashkilotlarga yo‘naltirish. Monitoring va nazorat og‘ir ahvoldagi oilalarni muntazam monitoring qilish, yordam samaradorligini baholash. “Inson” markazlari mahallada ijtimoiy himoyani tashkil etishning yagona va mustaqil mexanizmi hisoblanadi. Ilgari turli vazirlik va idoralar (Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi va boshqalar) o‘rtasida tarqalib ketgan barcha ijtimoiy xizmatlar endi “Inson” markazlari tomonidan birlashtiriladi. Bu esa fuqarolar uchun ma‘lumot olish va yordam so‘rash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi. [7] Markazlarning faoliyati nafaqat muammo yuzaga kelgandan keyin yordam ko‘rsatishga, balki uning oldini olishga qaratilgan. Xavf ostidagi oilalarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga zarur ko‘mak ko‘rsatish orqali og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishning oldi olinadi. Bu yondashuv nafaqa tarqatish bilan cheklanib qolgan eski tizimdan tubdan farq qiladi, chunki u aholini og‘ir ahvoldan chiqarishga va jamiyatda o‘z o‘rnini egallashiga yordam beradi. “Inson” markazlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanish xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron ariza qabul qilish, ma‘lumotlar bazasini integratsiyalash va mobil ilovalar orqali aholi bilan muloqat qilish jarayonlari xizmat ko‘rsatishning tezligi va shaffofligini oshiradi. Raqamlashtirish, shuningdek, turli davlat organlari tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay formatdagi ma‘lumotlarni taqdim etishni ham o‘z ichiga oladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahalladagi aholi ko‘rsatilayotgan 250 turdagi ijtimoiy xizmatlarning yarmini ham bilmasligi mumkin. Shu sababli, “Inson” markazlari faoliyati va mavjud imkoniyatlar to‘g‘risida keng ko‘lamli targ‘ibot va ommaviy axborot kampaniyalarini olib borish zarur. Bu borada “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” va “temir daftar” kabi mavjud tizimlar bilan yaqin hamkorlik qilish samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Inson” markazlari orqali amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, balki butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat

qiladi. Ushbu tizim yordamida har bir fuqaro o'z qadri va ijtimoiy adolatni his etadi. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etishda "Inson" markazlari asosiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu markazlar orqali amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy himoyani faqat moddiy yordam tarqatishdan ko'ra, har bir fuqaroning shaxsiy holatiga mos, kompleks va individual yondashuv asosida amalga oshiriladigan professional xizmatga aylantirmoqda. "Inson" markazlarining samarali faoliyati natijasida mamlakatimizda inson qiyofasiga ega bo'lgan ijtimoiy davlat qurilishiga muhim hissa qo'shilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency/>
2. <https://www.tfqm.uz/oz/b/index.php?page=post&id=62>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/03/social-services-agency/>
5. <https://www.tfqm.uz/oz/b/index.php?page=post&id=62>
6. <https://lex.uz/docs/-6480342?ONDATE=12.02.2025&action=compare>
7. <https://lex.uz/docs/-6480342?ONDATE=12.02.2025&action=compare>